**XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI**

## 2023- yilning yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

| Ko'rsatkich | Qiymat |
|---|---|
| YAHM hajmi, *mlrd. so'm* | 15 642,2 |
| YAHM o'sish sur'ati | 105,2 % |
| YAHM deflyator indeksi | 112,5 % |




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-iyunida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 15 642,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 5,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-iyunidagi narxlariga nisbatan 112,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,3 % ga yetdi.





## 2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | ***2022- yil*** | ***2023- yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | 13 217,2 | 15 642,2 | 105,2 |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 12 755,7 | 15 205,5 | 105,0 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 461,5 | 436,7 | 110,0 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **12 755,7** | **15 205,5** | **105,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **4 981,8** | **5 862,8** | **106,3** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **2 848,8** | **3 466,7** | **105,2** |
| sanoat | 1 960,4 | 2 392,7 | 104,4 |
| qurilish | 888,4 | 1 074,0 | 107,0 |
| **xizmatlar** | **4 925,1** | **5 876,0** | **103,6** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 760,8 | 887,3 | 102,9 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 810,4 | 949,5 | 105,7 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 3 353,9 | 4 039,2 | 103,2 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

Quyida keltirilgan infografikadan koʻrinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 7 960,4 ming soʻmni tashkil etdi va bu koʻrsatkich oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 3,3 % ga yuqoridir.

**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning oʻsish surʼatlari**
*(oʻtgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*




**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**
*(ming soʻmda)*










**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi** *(jamiga nisbatan % da)*

| | *2022- yil* | *2023- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 96,5 | 97,2 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 3,5 | 2,8 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **39,1** | **38,6** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **22,4** | **22,8** |
| sanoat | 15,4 | 15,7 |
| qurilish | 7,0 | 7,1 |
| **xizmatlar** | **38,5** | **38,6** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 6,0 | 5,8 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 6,4 | 6,2 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 26,1 | 26,6 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi** *(jamiga nisbatan % da)*

**2022- yil**




| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 39,1 % | Sanoat 15,4 % |
| Qurilish 7,0 % | Xizmatlar 38,5% |

**2023- yil**




| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 38,6 % | Sanoat 15,7 % |
| Qurilish 7,1 % | Xizmatlar 38,6% |

Yalpi qo‘shilgan qiymat

Mahsulotlarga sof soliqlar

2023- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 38,6 % ni, sanoat tarmog‘I 15,7 % ni, qurilish 7,1 % ni va xizmatlar sohasi 38,6 % ni tashkil qildi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2023- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi**
*(jamiga nisbatan % da)*




YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 2,4 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 1,3 f.p.), sanoat tarmog‘i – 0,6 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 1,9 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,5 f.p. (2022-yilning yanvar-iyunida – 0,5 f.p.) va xizmatlar sohasi – 1,4 f.p. (2022-yilning yanvar-iyunida – 1,7 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 0,6 f.p.)ga ko‘paydi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari**
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2022- yil | 2023- yil |
|---|---|---|
| YAHM | 6,0 | 5,2 |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 3,3 | 6,3 |
| Sanoat | 14,9 | 4,4 |
| Qurilish | 7,1 | 7,0 |
| Xizmatlar | 4,5 | 3,6 |

2023- yilning yanvar-iyunida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 106,3 % (YAHM ning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 38,6 %), sanoatda – 104,4 % (15,7 %), qurilishda – 107,0 % (7,1 %), xizmatlar sohasida – 103,6 % ni (38,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 102,9 % (5,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 105,7 % (6,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,2 % dan (26,6 %) iborat bo‘ldi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi**

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*










2023- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2022- yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 112,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko’rsatkichlari sanoatda 116,9 %, xizmatlarda – 115,1 % va qurilishda – 113,0 % qayd etildi.









# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**

| | Hajmi, *mlrd. so'm* | Ulushi, *% da* |
|---|---|---|
| 2022- yil | 8 789,3 | 68,9 |
| 2023- yil | 10 392,8 | 68,3 |



2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 10 392,8 mlrd. so‘mni tashkil etib (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – 8 789,3 mlrd. so‘m) YAHMdagi ulushi 68,3 % ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – 68,9 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

